

**TARBIYA JARAYONINI AMALGA OSHIRISHDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.**

Sirojova Shodiya Zoir qizi
8-maktabning 10-sinfo`quvchisi

Tarbiya metodlari deganda shaxsni har tomonlama shakllanrirish maqsadida shaxsning ongi, his-tuyg`usi, irodasi va munosabatlar tizimiga ta`sir ko`rsatish tushuniladi.

Tarbiya metodlari turli elat, millat va davlatlarda turli-tumanligi bilan farq qiladi. Yevropada tarbiya metodlarining bir tizimi qabul qilingan bo`lsa, Markaziy Osiyoda boshqa tizim amalda qo'llaniladi. Yevropa mamlakatlari uchun ochiq tarbiya ko`proq qo'l keladi. Ya`ni bola nima xohlasa shuni

qilishi, katta -kichik oldida nimani xohlasa shuni gapirishi, xoh o`zidan kattani, xoh ota-onasini xohlagan joyida tanqid qilishi mumkin. Markaziy Osiyo mamlakatlarida, xususan, O`zbekistonda ko`proq paternalistik tarbiya elementlari qo'llaniladi. Bunday tarbiya tizimining o`ziga xosligi umuminsoniy qadriyatlarni shakllanrirish bilan birga o`zidan kattaga alohida hurmat, kattalar gapiga qulqoq osishlik, rahbariyatning fikrini va topshirig'im topshirig'ini so`zsiz bajarish, nogironlarni ijtimoiy himoyalash kabilar yotadi.

Ma`lumki, ajdodlarimiz davr sinovidan o`tgan ajoyib insoniy fazilatlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalarini yaratganlar, shu asosda yoshlarmizni ijtimoiy hayot talablariga javob beradigan kishilar qilib tarbiyalab kelganlar. Yosh avlodda insoniy his-tuyg`ularni tarbiyalashning asosi – kishilarga mehr-muhabbat qo'yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, insoniy huquqlarini himoya qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o`z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiyl, halol, rostgo`y bo`lish kabi odob va axloq qoidalarini o`z ichiga oladi. O`zbek xalq pedagogikasining muhim ahamiyatga ega bo`lgan xususiyatlaridan yana biri xalq og`zaki ijodi materiallarida xalq pedagogikasida qo'llaniladigan tarbiya yo'llari, usul va vositalarining yoritilishidir. Mehnatkash xalq ommasi, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, uzoq davrlar davomida vujudga kelgan tarbiya usullari va vositalaridan foydalangan. Chunonchi, tushuntirish, odatlantirish (o`rgatish va mashq qildirish), bolalarning kundalik hayot tartibi, ibrat ko`rsatish, maslahat berish, o`gitnasiyat, undash, ko`ndirish, iltimos qilish, tilak-istik bildirish, ma`qullah, maqtash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo`l tilash, ta`qiq qilish, man etish, ta`na, gina qilish, qoralash, Allohdan qo`rqishga undash, tanbeh berish, uzr so'rash, majbur qilish, masxara-mazax qilish, zaxarxandalik, ayplash, uyaltirish, koyish, qarg`ash, qo`rqitish, nafrat bildirish, aybiga iqror qildirish, ont-qasam ichirish, la`natlash, so`kish, urish-kaltaklash; jamoa hukmiga havola qilish kabi usullar tarbiyada qo'l kelganligi ta`kidlanadi. Tarbiya jarayoni murakkab bo`lib, o`quvchilar xulqidagi ijobjiy fazilatlarni tarkib toptirib borish bilan birga, salbiy holatlarni va odatlarni yo`qotib

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

borishni taqozo etadi. Mahoratli pedagoglar-o'qituvchilar o'quvchilardagi bu fazilatlarni hisobga olib, tarbiyalashda turli xil usul va vositalardan foydalanadi.

Tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchilar tomonidan qo'llanadigan metodlar muhim ahamiyatga ega. Tarbiya metodlari – pedagog-o'qituvchilarning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir. Ayni vaqtida tarbiya mazmunini ko'p qirraliligi tufa yli tarbiya metodlari ham xilma-xil bo'lib, ulardan qaysi birini tanlash tarbiyaning qaysi jihatlari olib borilayotganligiga bog'liq. Albatta, tarbiya jarayonining qandaydir bosqichida metod ba'zan ajratib olingan holda alohida qo'llanishi mumkin. Biron-bir tarbiya metodidan foydalanish aniq pedagogik sharoitga hamda o'quvchitalabalarining yosh va psixologik xususiyatlariga ham bog'liq. Bu boradagi vazifalar yosh avlodni O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustaqkamlash, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida faoliyat olib boruvchi faol va barkamol shaxs qilib tarbiyalash, ularni bu kurashga jalb ettirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu g'oyaga tayangan holda, tarbiya jarayonida uning qonuniyatlariga muvofiq tarbiya metodlaridan foydalanib, ish ko'rish lozim bo'ladi.

Tarbiya metodlari bu o'qituvchi (tarbiyachi)lar va jamoa tomonidan g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarni, ma'naviy his-tuyg'u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari demakdir. Tarbiya metodlari o'quvchi (tarbiyalanuvchi)larning o'z shaxsini takomillashtirish borasidagi harakatni ham tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bois, hozirgi zamon edagogikasida tarbiya metodlari pedagog-o'qituvchilar va o'quvchilarning tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro bog'langan birlashtirilgan faoliyati sifatida qarab chiqiladi. Demak, tarbiya ikki tomonlama jarayon bo'lib, pedagog o'qituvchilar (tarbiyachilar) faoliyati bilan o'quvchilarning faoliyatini birlashtiradi. O'quvchilarning tarbiyaviy ta'sirga faol tayyor bo'lishiga erishish uchun buni muayyan sharoitga qo'yish, uning faol faoliyatini tashkil etish lozim. U yoki bu tarbiyaviy vazifalarni hal etishning muvofiq tashkil etilgan metodik yo'lla ri tarbiya vositalari deb yuritiladi. O'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarda foydalaniladigan televidenie, radio, kitoblar, gazeta-jurnallar va hokazolar tarbiyalanuvchi shaxslar jalb qilinadigan faoliyat turlari tarbiya vositalari hisoblanadi. Pedagog-o'qituvchilarning jonli nutqi, shaxslarning o'yinlari, jamoatchilik, havaskorlik va texnik to'garaklari tarbiya vositasi vazifasini bajaradi. Ammo tegishli tarbiyaviy jarayonni tashkil etish uchun ularni albatta, murabbiy-pedagog ishining muayyan tizimiga kiritish kerak. Tarbiya natijasining samarali bo'lishi tarbiyaviy jarayonni tashkil etish tarbiya metodlari, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga va ularni qo'shib olib borishga bog'liqdir. Zero, tarbiya metodlari, vositalari va shakllaridan foydalanishning maqsadi va mazmuni barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlaridan hisoblanadi. O'quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta'sirga turlicha munosabatda bo'ladi. Bu ularning alohida

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o'rini va samarali tanlanganligiga hamda mohirona qo'llanganiga bog'liq.

Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilari bilan ishslash jarayonida o'quvchilarni mehnat faoliyatiga, xulq-atvor qoidalariga o'rgatishda ularda kun tartibi aniq bo'lishi Tabiya metodlari o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko'pgina tarbiyaviy ta'sirlarni o'z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi muhimligini, ularga o'quvchilarning qat'iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi. Tushuntirish bilan bir qatorda dars xonasiga to'g'ri kirib kelish, ularni o'qituvchi va o'quvchilar bilan salomlashishga, tartib-intizomni saqlash qoidalarini mashq qildirib, dars vaqtida odatlantirib boradi. Bu jarayonda ularning amalga oshirgan ijobiy ishlari, o'quv ishi natijalari rag'batlantirib borishni taqozo etadi. O'quvchilar topshiriqlarni to'g'ri bajarganda ma'qullash, maqtash kabi ta'sir vositalaridan, topshiriqlarni bajarmagan, beparvolik qilgan, ishlamagan va ularni oxiriga yetkazmagan o'quvchilarga tanbeh berish metodlarini qo'llay boshlaydi. Tarbiya metodlarining tavsiflanishi.

Ko'rinish turibdiki, o'qituvchi o'quvchilar bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qo'llaydi. Tarbiya metodlarining xilma xilligi ularni turlarga ajratish, tasnif qilish zarurligini ko'rsatadi. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o'qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o'zlashtirib olishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruh metodlarining vazifasi o'quvchilarning ijtimoiy ongida hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me'yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me'yorlar o'quvchi shaxsining e'tiqodi, ishonchi, hayotiy qarashlari va tajribasiga aylanadi. Ushbu guruhga ma'naviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suh batlar hamda namuna ko'rsatish metodlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh metodlarining yordamida o'quvchilarda ma'naviy mazmunga oid odatlar hosil qilinadi. O'quvchilar xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma'naviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi. Faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim jarayoni alohida darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi.

Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar - tarbiya jarayonining bir bo'lagidir, tarbiyaviy tadbirlar -bu tarbiyaning tizimliligi, tugalligi, uzviyligi va uzlusizligidir. Tarbiyaviy tadbir - tarbiyalanuvchilarning muayyan tarbiyaviy faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shaklidir. Tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati zaruriylik, foydalilik va tadbiq etish imkoniyatidan iborat. Mazkur vazifalarni hal qilishda ta'lim muassasalari

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

faoliyati muhim ahamiyatga ega. Chunki bu ijtimoiy tarbiyaning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim muassasalari negizida pedagogik xuquqiy, psixologik ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi "ota-onalar va o'quvchi" faoliyatini tashkil etish, bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib, tajribalarini ommalashtirishni yo'lga qo'yish.

Maktab, oila, mahalla mehnat jamoalari, jamoat tashkilotlari hamkorligining bu yangi tuzilmasi bolalar va katta yoshdagi aholining odob-axloq, g`oyaviy siyosiy, mehnat, iqtisodiy ekologik sog'lomlashtirish va jismoniy tarbiyasiga, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga, madaniyat, ta'lim, sport, xalq ta'limi, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda mahallalarning moddiy ba'zasi va xodimlaridan to'laroq, oqilona foydalanishda amaliy imkoniyatlar beradi.

Ijtimoiy pedagogik markazning afzalligi shundaki, u uzuksiz tarbiya jarayonida tarbiyaning xalqona, milliy asoslarini, ommaviy tarbiya an'analarini amaliyotga joriy qiladi. Bolalar va o'smirlar klublarini ochishda, yoshlar qonunbazarligining oldini olish va ijtimoiy tartibning buzilishiga qarshi ommaviy kurash olib borish imkoniyatini yaratib beradi.

Fuqarolik faoliyati o'z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishni, jamiyat belgilagan yashash va axloq me'yorlariga ongli ravishda rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklikni barqaror etadi:

Islohotlarning takdiri va samarasи uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish borasida ustuvor davlat siyosati yurituvchi;

- Siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosatini tushunish va vatanparvarlik va baynalminallikni his etish, ijtimoiy siyosiy hayotda faol qatnashishga shay turish;

- Xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya'ni qonunchilik tamoyillarini, o'zining Vatan, mahalla, oila oldidagi huquq va burchlarini bilishi, ularga qatiy amal qilishi. Qonunchilikning

- buzilishiga murosasiz munosabatda bulish;
- Shaxsning ma'naviy, axloqiy sifatlarini tarbiyalash;
- Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, shakllanayotgan milliy mafkurani o'quvchi yoshlar ongiga mukammal etkazish;

- Kishilarni o'z o'zini chuqur anglashini, mustaqillikning mohiyatini tobora teran tushunishi va uning qadriga etishi, milliy tafakkurning takomillashuvini, tarixiy xo'rlik mustaqillik ruxining uyg'onishini ta'minlash ma'naviyat sohasida siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishini tushuntirish.

Hozirgi paytda axloqiy va ma'naviy jixatdan tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchi-yoshlarni orsida kuchaytirish zarur. Axloq yo'q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchun axloqiy tarbiya shaxsning har tomonlama va erkin shakllanishida asosiy o'rinni egallab keladi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarbiyachilari (o`qituvchilar, sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari buyicha direktor o`rnbosarlari, bolalar etakchilari va boshqalar) jamoasi oldida doimo o'quvchilarga umuminsoniy axloq qoidalari asosida hayot kechirishni o`rgatishdek muhim vazifa turadi.

Ta`lim tarbiya jarayonini o`rganishga muhabbat uyg`otish, bilimga tashnalik fazilatlari, axloqiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismidir. Bolalarning o`qishdagi muvaffaqiyatidan uning guruhidagi o`rn ni aniqlanadi, atrofdagilarning u bilan munosabati belgilanadi, o`qishdagi muvaffaqiyatlari bolaning axloqiy tarbiyasini tarbiyaviy tadbirlar orqali yuqori darajaga kutara oladi.

O'quvchilar qalbida yuksak ma'naviyatlilikni shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati beqiyosligini tushuntirish.

Bilim manbai bo`lgan kitobni sevish, ardoqlash uni o`qish va ko`z qorachig`idek saqlay bilish lozim, o`qish uchun uni tanlay olish va uni madaniyatini bilish zarur. Bu ishda o'quvchilarga ustozu, murabbiylar va kutubxona xodimlari yordam berishlari lozim.

Tarbiya muassasalarida umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bo`lishi va uni amalga oshirish uchun shaxs erkinligi va demokratiyanı himoyalash har bir kishining asosiy vazifasidir. Jamiyatda dinning ta'siri ortib borar ekan, yoshlar bilan ishslashda dinga bo`lgan munosabatni to`g`ri shakllantirish, ularga dinni umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tushuntirish lozim. O'quvchilarda dinni alohida dunyoqarash, bilimni esa hayotni mukammallashtirish va rivojlanТИrish vositasi ekanligini anglatish zarur. Shu bilan bir qatorda dinni niqob qilib olgan diniy ekstremistik oqimlar, ularning yovuz niyatlarini fosh etib berish zarur.

Fuqarolar birligi, millatlararo hamkorlik, rivojlanib borayotgan yosh va mustail mamlakatimizning asosiy negizidir.

Respublikamizning mustakil davlat sifatida shakllanishi jarayonida, yosh avlodni jamiyat yangilanishining mohdyatini va zarurligini tushunib o`tadigan, o`zi uchun, o`zi yashab turgan o`lkaning gullab yashnashi uchun, uning taqdiri uchun, o`zga davlat va millat vakillari bilan do`stu birodarlikni mustahkamlash uchun javobgarlikni his qiladigan darajada tarbiyalash.

Vatanparvarlik — mustaqil. O`zbekiston uchun yanada kengroq ma`no va mazmunga ega so`z bo`lib qoldi.

Bugungi kunda vatanparvar bo`lish bu iqtisodiyotimizni, mudofamizni, barcha millat vakillarining dustona munosabatini o`z bilimi, fidokorona mehnati, a`lo o`qishi bilan mustahkamlashdan iborat.

Har bir o`quvchi Vatan muvaffaqiyatida uning ham shaxsiy burchi va mas'uliyatli vazifalari borligini to`la idrok etsin. Kundalik tarbiyaviy ishlarni shunday tashkil etish zarurki, natijada o`quvchilar vatan mustaqilligi sharoitida uning muammolarini o`zinikidek qabul qiladigan bulsin. Ularning og`irligini o`z elkasiga oladigan, mumkin qadar Vatanga foyda keltiradigan shaxs bo`lib ulg`aysin. Bugungi kunda olib borilayotgan, ko`zda tutilgan barcha yangilanish jarayonlari, iqtisodiyi jtimoiy, madaniy

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

sohalardagi tub o`zgarishlar hammaning fidokorona xizmati tufayligina yuzaga kelishini tushunib yetishsin.

O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismlaridan biri harbiy vatanparvarlik tarbiyasidir. Ushbu tarbiya jarayoni o`quvchilarda o`z ona Vatanini himoya qilish tuyg`usi va Vatan harbiy kuch qudratiga nisbatan milliy g`ururni yanada shakllantiradi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy mazmuni o`quvchilarga vatanni himoya qilish, harbiy kuchlarning Konstitutsion majburiyatini tushuntirish, turli harbiy va mehnat ana'nalarini targ`ib qilishdir. Shu maqsadda o`quvchilarni amaliy harbiy va texnik tugaraklar, mashg`ulotlariga jalb qilish zarur. Shu bilan birga turli harbiy musobaqalar, turistik sayohatlar, harbiy o`yinlar («Shunkorlar» o`yini), harbiy sport bayramlarini utkazish: «Vatanparvar» deb nomlangan kompleks harbiy sport musobaqalarini muntazam o`tkazib turish; harbiy shon shuhrat muzeylarini, «Yoshlarning harbiy xizmatga tayyorgarlik burchaklari»ni va xonalarini tashkil etish; harbiy qismlarda xizmat qilayotgan yigitlar bilan uchrashuvlar uyushtirish; vatanimizning harbiy qahramonlari to`g`risida davra suhbatlari o`tkazish; xotira solnomalarini tuzish va boshqa vatanparvarlik tarbiyasiga xos faoliyatlar bilan shug`ullanish lozim. O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jamiyatni qayta qurish va ma'naviy rivojlanishiga keng sharoit yaratildi. Bozor iqtisodiyoti turli millat vakillarining o`zaro yaqinlashuvini uyg`unlashtirmoqda. Bu esa umumiy iqtisodiy munosabatlarni davlatlararo miqyosga olib chiqmoqda. Bozor munosabatlari barcha millat vakillarining, elatlarning, aholining ijtimoiy guruhlarini o`zaro birlashishga, shu tariqa o`zaro kelishuv va hurmat ehtiromning shakllanishiga sabab bo`lmoqda. O`z kasbini sevish va uning mohir ustasi bo`lish, ijodiy mehnat har bir millat vakili uchun inson holatining asosiy mezoni bo`lib qolmoqda.

Mustaqil O`zbekiston siyosatining fuqarolar tinchligi va milliy totuvlik asosida qurilganini e`lon qiladi. Bunga erishmoq uchun maktablardagi tarbiyaviy ishlarda har bir millat va elatlarning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti va qonuniy ravishda ularning o`zligini anglash darajasini o`sishiga olib kelishini nazarda tutish lozim